



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ

Илимий-методикалық журнал



№ 5/1 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

Ibodullayeva S.M. “Kecha va Kunduz” romanida “Begonalik” tushunchasini ifodalovchi undalmalar

Haydarova G.M. O‘zbek tilining izohli lug‘atida yasama so‘zlardan foydalanish holati

Axmadaliyeva M. Sh. Ijodiy jarayonning mangullikka yo‘g‘rilishi

Sattorova Sh.R. Xorijiy tillarni badiiy adabiyot asosida o‘qitishning ilmiy-nazariy tahlillari

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Давлетмуратов Ж.Қ. Техникалық бағдардағы жоқарғы оқыў орынларында «Материалтаныў» пәнин оқытыўда педагогтың креативлигин арттырыўдың нәтийжели жоллары

Икромова М.Х. Технология фанини ўқитишда рақамлаштирилган таълим ресурсларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари

Ахмаджанов Д.Б. Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда шарқ мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий таълимотларидан фоявий омил сифатида фойдаланиш

Murtozayeva M.M. Voyaga yetmagan bolalarda salbiy hulqning namoyon bo‘lishi va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik tendentsiyalari

Mavlanov Sh.Yu. Ta‘lim jarayonida pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va ulardan foydalanish funktsiyalari

Qodirova M.A. Oliy ta‘lim muassasalarining ingliz tili yo‘nalishi talabalarida refleksivlikni rivojlantiruvchi omillar

Begmatova S.N. Tayanch kompetensiyalarni aniqlash muammosi ta‘lim mazmunini yangilashning markaziy masalalaridan biri sifatida

Choriyeva G.Sh. Biologik ekskursiyalar – o‘quv ishlarining tashkiliy shakli sifatida

Karimova N.A. Maktab biologiya ta‘limida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pegagogik-psixologik hususiyatlari

Xalmuratov I.T. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlanrinish

Ergashev J.M. Didaktik o‘yinlarning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati

Orinbetov N.T. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar

Ochilov X.A. Oliy ta‘lim muassasalarida rahbar kadrlarni boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning amaliyotdagi ahamiyati

Ismoilova Yu.T. Pedagogik muloqot jarayonidagi konfliktlar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Sattorova M.A. maktab ta‘limida bo‘lajak defektolog mutaxassislarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish muammosi

Jumamurodova U.M., Aliqulov L.Sh. Pedagogika fanida qo‘llaniladigan interaktiv metodikalar

Xolboyev A.M. “Hamkorlik zanjiri” asosida talaba-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik jihatlari

Ahadov A.M. Modernizatsiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot xavfsizligini ta‘minlash ko‘nikmalarini takomillashtirish omillari

Eshmurodova G.X. Mehribonlik uylarida pedagogik muammolarining tadqiq etilishi

Murodova F.G’. Og‘zaki nutq malakasini baholash mazmuni, shakl vositalari va mezonlari.audio vizual dars tashkil etish

Suyunov I.E. Axborot kompetentligini rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy nutqini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida

Аляминов Х.И. Талабаларининг инновацион тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш омиллари

Mirzaboyev Yu .A. Kompetensiya va kompetentlikning pedagogik –psixologik xususiyatlari

Saxibov A.X. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish

Janaberegova A.J. Mustaqil ishlarni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlariga oid tadqiqotlar nazariyasi

Xudayqulova F.B. Pedagogik faoliyatda kasbiy madaniyatning xususiyatlari

Фозилов Б.З. Кар ва заиф эшитувчи 5-7-синф ўқувчиларининг фуқаролик компетенциясини шакллантиришда лойиҳа методидан фойдаланиш йўллари

Orinbetov N.T. Akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti

Nizamova M. N. Axborotlashgan zamonaviy jamiyatda bo'lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish

Kadirova G.X. Ta'lim jarayonida varativ o'quv topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari

To'raqulova M.Q., Fatullayeva S.I. Xorijiy tajribalar asosida oliy muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etish orqali yaratuvchi magistrnlarni tayyorlash metodikasi

Yuldashev S.N. Loyihaga asoslangan ta'lim jarayonni tashkil etish metodikasi

Куньинь Ли. Создание методического инструментария для развития экологической компетентности у будущих переводчиков и использование современных инноваций при его реализации

Qurbonova M E., Abdulaxatova M. A Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri usulida talabalarga kimyo fanini o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish masalalari

Qurbonova M E., Abdulaxatova M. A Klaster yondashuvi asosida bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish

To'rayev A.M Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Ibragimova D.I. Isajon Sultonning tarixiy hikoyalari tematikasi

Sa'dullayeva M. H Mukammal хотира va eslab qolish sirlari.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Тажетдинова Г.А. Жокары билимлендириўде жасалма интеллекттен пайдаланыў зэрүрлиги ҳәм машкалалардың шешимлери

Tleubaeva G.S. Oliy ta'lim tizimiga sun'iy intellektni joriy etish

Toxirov F.J. Talabalarning mobil ilovalarni ishlab chiqishga oid kompetentligini rivojlantirishda simulyatsiya va virtual muhitlardan foydalanish imkoniyatlari

Бўронова Г.Ё. Виртуал робототехника тўғаракларини ташкил этишда замонавий ўқув платформаларидан фойдаланишнинг амалий имкониятлари

Djumayev J.M. Robototexnika darslarida talabalarni ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish masallari

Axmedov A.B. Professional ta'limda raqamli transformatsiyaning ahamiyati

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Oteniyazova P.E. Qaraqalpaq xalıq awızeki kórkem dóretpelerinen biri bolǵan jumbaqlar tiykarında balalardıń til ósiriwin rawajlandırıw

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 14 apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori.
3. Omonov Xojiqul Tovbovich. Kimyo ta'limining falsafiy-pedagogik asoslari va uni takomillashtirish masalalari // ped. fan. nomz. ... diss. avtoreferati. – T.: 1994. - 32 b.
4. Qurbonova M.E. Organik kimyo darslarida pedagogik metodlardan foydalanishni o'rgatish). Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio' ilmiy-metodikaliq jurnal N6/3 // N6/3 Nykys-2022./12/01 10-12- B. (13.00.00; №23).

Rezyume

Ushbu maqolada talabalarga kimyo fanini o'qitishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri usulida o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish masalalari xususida ma'lumoylar berilgan.

Резюме

В данной статье представлена информация по вопросам организации и совершенствования учебной деятельности при преподавании химии студентам с использованием инновационного кластерного метода педагогического образования.

Summary

This article provides information on the issues of organizing and improving educational activities in the teaching of chemistry to students using the innovative cluster method of pedagogical education.

KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK KIMYO FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Qurbonova Muattar Erkinovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Abdulaxatova Manzura Akramjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Kalit so'zlar: Kimyo, mutaxassis, oliy ta'lim, kasbiy-texnologik, modellashirish, talabalar, xususiyatlar, tadqiqotlar o'tkazish.

Ключевые слова: Химия, специалист, высшее образование, профессионально-технологическое, моделирование, студенты, характеристики, проведение исследований.

Key words: Chemistry, specialist, higher education, vocational-technological, modeling, students, characteristics, conducting research.

Jahonda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida variativlik potentsialini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, klaster yondashuvi asosida ta'lim mazmunini innovatsion tashkil etishning mutaxassis asoslarini ishlab chiqish, ayniqsa, muhim dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, talabalarning kasbiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, pofessionallikni pedagogik jarayonda namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, kasbiy yo'nalganlik diagnostikasini amalga oshirish va talabalarning individual-kasbiy-intellektual xususiyatlarini o'rganishga doir qator ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, "Kimyo" fani mazmunini zamonaviy bilimlar bilan boyitishning metodik tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim jarayonida kasbiy-texnologik variativlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6- noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmonlari, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalar zamonaviy jamiyatning eng ilg'or qismi. Ular tanlagan kasbi bo'yicha chuqur bilim olib, kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlanadi. Ularni kasbiy kompetentligini shakllantirishni shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin. **Birinchi davr**-talabalikkacha bo'lgan davr. Bu bevosita maktab davrini qamrab oladi. Unda o'quvchilar fan o'qituvchisining kasbiy mahoratini baholaydi va o'zlari ham bevosita kelgusida o'qituvchilik kasbini tanlash bilan bog'liq tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Bu bosqichda o'qituvchining kasbini yaxshi bilishi, nutqi, tashqi ko'rinishi, pedagogik muomala madaniyati o'quvchilarga namuna, etalon bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu davrda, ayniqsa o'rta va yuqori sinflarda bolalarga, butun insoniyatga mehr-muhabbat shakllanadi va pedagogik kasbni tanlashga chuqur poydevor qo'yiladi. O'z kasbi orqali insoniyatga, Vatanga xizmat qilish, yosh avlodni tarbiyalashda ishtirok etish motivlari yuqori bo'ladi.

Ikkinchi davr- oliy ta'lim muassasasida o'qish davri. Bu davr ham o'z xususiyatlariga ega. O'quvchilar o'zlari tanlagan oliy ta'lim muassasasi to'g'risida oldindan ma'lumotga ega bo'ladi. Kasbga yo'naltirish maqsadida tashkil etilgan tadbirlar orqali ular tanlagan oliy ta'lim muassasasiga bir-necha bor kelib, undagi o'quv-tarbiya jarayoni bilan qisman tanishadi. Bu yerda ular o'ziga va kelgusi tanlagan kasblariga oid bilimlarini yanada oshiradi. Talabalar o'rtasida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir talaba birinchi olti oylik davrida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. Yangi tartib-qoidalar, yangi kun tartibi talabalardan jarayonga moslashish bilan bog'liq turli muammolarni keltirib chiqaradi. Kasbini ongli tanlagan va yaxshi tayyorgarlik ko'rgan talabalar bu davrdan osonlik bilan o'tadi. Aksincha, kasbni tavakkal tanlagan talabalar ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi va ularni jarayonga moslashishi uzoq vaqt talab qiladi, ayrim talabalar o'qishni tashlab ketishiga majbur bo'ladi. Kam bo'lsada bu holatlar maktabda kimyo fani o'qituvchisi kasbi bo'yicha yetarli darajada kasbiy targ'ibot ishlari olib borilmaganligidan dalolat beradi.

Kimyo yo'nalishi talabalari o'quv yillari davomida, o'quv reja bo'yicha 50 ga yaqin fanlarni o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. Bunda ijtimoiy gumanitar fanlar, umumkasbiy fanlar va mutaxassilik fanlari alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalarining o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil qilish bo'yicha imtiyozlari o'quv rejasidagi fanlarni majburiy va tanlov fanlarga bo'lib, tanlov fanlar bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan fan yo'nalishlari va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olib rejalashtirmoqda. Bu xorijda ko'p yillar oldin keng joriy qilingan tizim bo'lishiga qaramasdan, bizda bu kimyo mutaxassislari tayyorlashga bo'lgan yangicha yondoshuv, yangicha texnologiyalardir. Bu ta'lim sifatini va samaradorligini yanada oshiradi, talabalarni oldindan kimyo fani faoliyatiga ixtisoslashib borishini ta'minlaydi. Tanlov fanlar kelgusida yanada takomillashib, o'quv jarayonini asosini, katta qismini tashkil qiladi. Tanlov fanlarini tanlash mutaxassislik kafedrası jamoasidan katta tajriba va bilim, ilmiy salohiyat talab qiladi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib, tanlov fanlarga quyidagi muhim va dolzarb yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

- kimyo mutaxassislari tayyorlashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- kimyo faniga oid yuqori natijalarini modellashtirish;
- kimyoda xususiy tadbirkorlik;

kimyoviy tadbirlarini molyalashtirish;
o'quvchi va talaba-yoshlarni kimyo fani bilan mustaqil shug'ullanishni tashkil qilish va boshqarish;

kimyoga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazish metodikasi va b.

Bo'lajak kimyo mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik amaliyotning o'rni beqiyosdir. Amaliyotni tashkil qilish va o'tkazish muhim tashkiliy metodik tadbir.

Uchinchi davr-bu bevosita oliy ta'lim muassasasini bitirib, pedagogik faoliyatga kirishish davri. Bu davr mutaxassislarning ta'kidlashicha 5-7 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi va ular haqiqiy pedagog sifatida to'liq shakllanadi, faoliyatga moslashadi hamda kasbiy kompetensiyaga ega bo'ladi. Albatta, bu davrda ham kasbiy kompetensiyani oshirib borish talab etiladi. Bular o'z-ustida ishlash, malaka oshirish, tanlovlarda ishtirok etish, seminarlar, taqdimotlar o'tkazish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish jarayonida qatnashish, ilmiy, uslubiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy, uslubiy adabiyotlar tayyorlash va chop etish jarayonida yanada mukammallashib boradi.

Talabalarning o'zlari tomonidan o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun tanlangan talabalarning individual ta'lim dasturlari zamonaviy inson faoliyatining asosiy yo'nalishlariga mos keladigan ta'lim yo'nalishlarini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar ko'rib chiqilayotgan muammoning barcha jihatlarini tugatmaydi. Ilm-fan va o'quv amaliyoti ehtiyojlariga muvofiq, shuningdek olingan va asoslangan natijalarni hisobga olgan holda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunining uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ularni maktabning barcha darajalari va bosqichlarida amalga oshirish kabi mahalliy ta'lim bilan bog'liq sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom yettirish kerak. Ta'lim texnologiyasining muhim qismi bo'lgan ta'lim mazmuni asosan uning protsessual qismini belgilaydi. Ko'pincha, mashg'ulotning protsessual jihatlarini turlicha bo'lib, tarkib faqat tuzilish, dozalash va mantiqda o'zgaradi. Biroq, usullarning tubdan o'zgarishi maqsadlar, tarkib va shakllarning o'zgarishiga olib keladi va maqsadlar va tarkibning tubdan o'zgarishi ta'limning protsessual tomonini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyasi va mazmuni bir-birini yetarli darajada aks ettiradi.

Kasbiy ta'lim texnologiyasi deganda, kasbiy ta'lim sharoitida insonni shakllantirishning ta'limiy, tarbiyaviy va tashkiliy yondashuvlari, tamoyillari, usullari, texnikasi va shakllari to'plami bilan tavsiflangan va izchillik, takrorlanuvchanlik, mahsuldorlik belgilariga ega bo'lgan ijtimoiy va pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda talabalarni kasbiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini tayyorlashga qaratilgan pedagogik faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy yoki ishlab chiqarish munosabatlari jarayonini qamrab olishi, kasbiy-texnikaviy, ijtimoiy - iqtisodiy va kimyo sanoati ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish asosida ularning ruhan, irodaviy, axloqiy, jismoniy hamda estetik jihatdan kamolotga yetishishini ta'minlovchi pedagogik jarayon hisoblanadi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G.O.Ernazarova, Q.I.Isroilov, M.E.Qurbonova, Pedagogik kompetentlik. O'quv qo'llanma.T.2023 y.
2. Islamova Maftuna Sharofiddinovna, Qurbonova Muattar Erkinovna, Kimyoviy bilimlar asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarining kasbiy dunyoqarashini shakllantirish. Monografiya. Toshkent. ZEBO PRINT. 2023.
3. Qurbonova M.E. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash va ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning strategik modellari" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2022-yil 17-dekabr 321-323- betlar.
4. Qurbonova M.E., Abdulaxatova M.A. Bo'lajak kimyo fani mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалық журнал 2024 2-сан Нөкис 370 – 374 bet

5. Курбонова Муаттар Эркиновна ,Абдулахатова Манзура Акрамжоновна ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА КИМЁ ФАНИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА.66-71 бет

6. Qurbonova Muattar Erkinovna, Abdulaxatova Manzura Akramjonovna KLASSTER METODI ORQALI TALABALARNING INDIVIDUAL VA SHAXSIY RIVOJLANISHI ASOSIDA KASBIY-TEKNOLOGIK VARIATIVLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. YANGI O'ZBEKISTON; FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYA mavzusidagi Respublika ilmiy-tehnika anjuman materiallari to'plami (2024-yil 9-10 aprel) 809-811 bet.

Rezyume

Ushbu maqolada bo'lajak kimyo fani mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari yoritib o'tilgan.

Резюме

В данной статье рассмотрены вопросы формирования профессиональной компетентности будущих специалистов-химиков.

Summary

This article describes the issues of forming the professional competence of future specialists in chemistry.

TALABALARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

To'rayev Azamat Maqsudovich

Kalit so'zlar. Kompetensiya, innovatsion infratuzilma, kadrlar sifati, bozor talabalari, sifatli kadr, bo'sh vaqt, kasbiy mahorat, tadqiqotchilik kompetensiyasi.

Ключевые слова. Компетентность, инновационная инфраструктура, качество кадров, студенты рынка, качественные кадры, свободное время, профессиональные навыки, исследовательская компетентность.

Keywords. Competence, innovative infrastructure, quality of personnel, market students, quality personnel, free time, professional skills, research competence.

KIRISH. Bugungi shiddatli davrda jamiyat sohalari rivoji asosan sifatli kadrlar miqdoriga bog'liq bo'lib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tanqidiy fikrlaydigan, muammolarni mustaqil anglagan holda samarali hal eta oladigan, kutilmagan kasbiy vaziyatlarda kreativ harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarga talab kun sayin ortib bormoqda. Mazkur jabhada turli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlab beruvchi oliy ta'lim muassasalari zimmasida zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi. Kasbiy muammolarini muvaffaqiyatli hal qila oladigan, keng dunyoqarashga ega sifatli kadrlarni tayyorlashda esa dastlabki vazifalardan biri talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish hisoblanadi.

Bu borada mamlakatimizda keyingi yillarda OTM faoliyatini yanada rivojlantirish masalasida tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo'lajak mutaxassislarning o'z yo'nalishlarida tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi oliy ta'limni rivojlantirishning strategik vazifalari sifatida belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ilmiy tadqiqot ishlari sifatini oshirish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, bu borada tegishli me'yoriy xujjatlarni qabul qilish, talabalarda tanqidiy, ijodiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish kabi strategik rejalarni misol qilishimiz mumkun. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mahalliy tadqiqotchilardan S.N.Allayarova [3] talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda professor-o'qituvchi pedagogik mahoratining ahamiyati, D.Raximova, Sh Samiyevalar talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishning pedagogik shartlari, J.Saydullayev[7] talabalar ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil